

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 174 (1773), 2026-yil 26-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## MUSTAQILLIK BAYRAMI ARAFASIDA FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN ULKAN BUNYODKORLIK LOYIHALARI XALQIMIZGA MUNOSIB TUHFA

Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida 25-avgust kuni mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan hududlarda yangi obyektlarni ishga tushirish marosimi bo‘lib o‘tdi.



Tadbirida davlatimiz rahbari hududlardagi studiyalarga yig‘ilgan keng jamoatchilik vakillarini, ular orqali butun xalqimizni yaqinlashib kelayotgan ulug‘ bayram bilan tabrikkladi.

O‘rta qolgan o‘n yilda O‘zbekistonda inson qadriini ulug‘lash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yuz berdi. Tadbirkorlikka keng yo‘l ochilib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh sanoat tarmoqlarini yaratish, chekka tuman va qishloqlar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ulkan ishlar bajarildi. Ta‘lim, tibbiyot va madaniyat sohalariga e‘tibor yangi bosqichga ko‘tarildi.

— So‘nggi o‘n yil mamlakatimiz tarixida yangi Uyg‘onish davri — Uchinchi Renessans poydevorini qurish bosqichi sifatida abadiy muhrlandi, — dedi Prezidentimiz.

Bu davrda iqtisodiyotimiz hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Iqtisodiyot tarmoqlariga 160 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi, umumiy qiymati 76 milliard dollarlik 2 ming 163 ta yirik sanoat

loyihasi ishga tushirildi, qariyb 6 million nafar aholi doimiy ish o‘rni bilan ta‘minlandi.

Bugun yurtimizda dunyoning yetakchi kompaniyalari, yirik investorlari va xalqaro moliya institutlari ishtirokida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmogda. Investitsiyalar ko‘payishi bilan sanoatimiz qiyofasi ham tubdan o‘zgarimogda.

— Biz xomashyo eksport qilgan davlatdan uni chuqur qayta ishlash zanjiri asosida tayyor mahsulotni jahon bozoriga olib chiqadigan iqtisodiyotga o‘tyapmiz. Eng muhimi, yangi korxonalar bilan birga zamonaviy texnologiyalar, yangi kasblar va yuqori malakali ish o‘rinlari ham paydo bo‘lmogda, — dedi davlatimiz rahbari.

Joriy yilning o‘zida 1,7 milliard dollarlik 56 ta yirik zamonaviy sanoat va servis obyekti ish boshladi, 8,8 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratildi.

Shuningdek, budgetdan ajratilgan 46 trillion so‘m hisobidan 385 ta maktab, 113 ta bog‘cha, 81 ta shifoxona, 7,5 ming kilometr yo‘l, 3,2 ming kilometr ichimlik suvi va kanalizatsiya

tarmoqlari qurildi, ta‘mirlandi va rekonstruksiya qilindi.

Buguni marosimda mamlakatimizning barcha hududlarida umumiy qiymati qariyb 50 trillion so‘m bo‘lgan 72 ta yirik sanoat va servis loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti foydalanishga topshirildi. Ularning ochilishi Mustaqillik bayramiga munosib tuhfa bo‘ldi.

Yangi loyihalar hisobiga 15 mingta ish o‘rni yaratiladi, budgetga yiliga qo‘shimcha 1 trillion so‘m tushum tushishi ta‘minlanadi.

Investitsiya loyihalarini energetika, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati, metallurgiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari, tog‘-kon, to‘qimachilik va yengil sanoat kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab olgan.

Jumladan, Sirdaryo viloyatida 1 ming 573 megavattli elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 200 megavattli shamol elektr stansiyasi va 100 megavattli energiya saqlash tizimi ishga tushirildi. Navoiy viloyatidagi yangi energetika loyihalarini yiliga 657 million kilovatt-soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi.

Mazkur loyihalar orasida mamlakati-mizning eksport salohiyatini sezilarli oshiradigan quvvatlar ham bor. Andijon, Namangan va Jizzax viloyatlarida ishga tushirilgan to‘qimachilik, trikotaj va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari millionlab dollarlik eksportni ta‘minlaydi. Samarqand va Toshkent viloyatlarida barpo etilgan yangi metallurgiya korxonalari ham sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va import o‘rnini bosishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz bugungi loyihalarini faqat investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash to‘g‘ri bo‘lmashligini ta‘kidladi. Yangi o‘quv yili arafasida ijtimoiy sohada ham ko‘plab zamonaviy obyektlar foydalanishga topshirilmogda. Ular orasida 36 ta bolalar bog‘chasi, 43 ta maktab, 7 ta oliy ta‘lim muassasasi va 3 ta shifoxona bor.

Yangi Toshkent hududida jahon standartlari asosida 10 gektar maydonda barpo etilgan Yangi O‘zbekiston universitetining zamonaviy majmuasi shular jumlasidandir. Bu yerda 7

ming nafar talaba tahsil olishi uchun sharoit yaratilgan.

Oliy ta‘lim muassasasida Garvard universiteti bilan hamkorlikda Rektorlar maktabi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Oksford universiteti bilan birgalikda davlat xizmatchilarining malakasini oshirish bo‘yicha “Ta‘lim xabi” tashkil etiladi. 1-oktabrdan Sun‘iy intellekt instituti ish boshlaydi.

Shuningdek, 30 ming kvadrat metr maydonga ega besh qavatli yangi Milliy kutubxona eng zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan. U bir vaqtning o‘zida 1,5 ming nafar kitobxonga xizmat ko‘rsata oladi. Bu yerda 28 dan ziyod o‘quv xonasi va zallar, turli sig‘imdag konferensiya zallari tashkil etilgan, 200 mingdan ortiq kitob jamlangan.

Qarshi shahrida 400 milliard so‘mlik Iqtisodiyot va pedagogika universitetining zamonaviy bino va inshootlari barpo etildi. Bu yerda 3 ming nafar talaba tahsil oladi, 700 nafar aholi daromadli ish bilan ta‘minlanadi.

Farg‘ona viloyatidagi yangi zamonaviy tibbiyot muassasasida esa yiliga 60 ming nafar

bemorni davolash va 30 ming nafar ayolni skrinindan o‘tkazish imkoniyati yaratildi.

Davlatimiz rahbari yangi obyektlarni barpo etishda ishtirok etgan investor va tadbirkorlar mehnatini yuksak baholadi.

— Siz kiritayotgan har bir investitsiya O‘zbekiston kelajagining poydevorini mustahkamlaydi. Siz yaratayotgan har bir ish o‘rni oilalar farovonligiga xizmat qiladi. Siz ishlab chiqarayotgan har bir mahsulot mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Siz eksport qilayotgan har bir tovar O‘zbekistonning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshiradi, — dedi Prezidentimiz.

Ushbu loyihalarini barpo etishda fidoyilik ko‘rsatgan quruvchilar, muhandis va loyihachilar, tadbirkor va investorlarga minnatdoriik bildirildi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosdi va 72 ta yirik investitsiya loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti foydalanishga topshirildi.

O‘Z

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH KONGRESSI VAKILLAR PALATASI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Kongressi Vakillar palatasining kongressmenlar Jeyson Smit, Greg Merfi, Ronni Jekson va Edvard Keysdan iborat delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuv avvalida amerikalik qonun chiqaruvchilar O‘zbekiston Prezidenti va xalqini mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy qutladilar.

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash hamda parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki tomonlama munosabatlarda ijobiy sur‘at kuzatilayotgani, siyosiy muloqot yuqori darajada ekani, aloqalar va o‘zaro tashriflar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikki mamlakat yetakchilari yaqinda bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqot chog‘ida strategik sheriklikni yanada

kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab oldilar.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Joriy yil boshidan o‘zaro savdo hajmi 20 foizga oshdi. Energetika, muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar va sanoat sohalarida yirik loyihalarini boshlash va amalga oshirishni nazarda tutuvchi uch yillik Iqtisodiy hamkorlik dasturi izchil amalga oshirilmogda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni qo‘llab-quvvatlashda, shuningdek, ikki mamlakat o‘rtasidagi konstruktiv va o‘zaro manfaatli muloqotni ilgari

surishda AQSH Kongressining muhim o‘rni qayd etildi.

Hududlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi. AQSH delegatsiyasi a‘zolari vakillik qilayotgan Missuri, Shimoliy Karolina, Texas va Gavayi shtatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni yanada rivojlantirish va qo‘shma loyihalarini amalga oshirishga tayyorlik bildirildi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ishbilarmonlik missiyalarining o‘zaro tashriflarini tashkil etishga kelishib olindi.

O‘Z

## ABADIY DO‘STLIK RISHTALARI BILAN MUSTAHKAMLANGAN MING YILLIK QARDOSHLIK

Ozərbaycan Prezidenti İlham Aliyevning mamlakatimizga davlat tashrifini katta qiziqish, tarixiy birdamlik quvvati bilan kuzatib bordik.

Avval Toshkentdagi uchrashuvlar, ertasi kuni Buxoro safaridagi samimiy munosabatlar o‘zaro do‘stlik rishtalarining rasmiy talqinlarga sig‘mas ramzlari aks etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nuktadan siyosati natijasida yangi O‘zbekiston dunyoga ochildi, dunyo ham bizga yuzlandi. Ozarbayjon yetakchisining kechagi tashrifi mana

shu qutlug‘ hodisani yana bir bor namoyon etdi.

Bu haqda to‘xtalishdan oldin O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi siyosiy imiji borasidagi kuzatuvlarimizdan birini aytsek. Odatda Prezidentlar xorijga tashriflari chog‘ida rasmiy mulozamatda bo‘lishadi. Ammo O‘zbekistonga kelgan dunyo yetakchilari bizning Prezidentimiz bilan muloqotda o‘z samimiyatlarini yashimaydi.

Davlatimiz rahbarining ochiq, o‘zaro bag‘rikenglik siyosati har qanday rasmiyatchilik munosabatlaridan ustun keladi.

Prezident İlhom Aliyev ham kechagi tashrifi chog‘ida O‘zbekistonning bugungi taraqqiyoti haqida gapirar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakat rahbarligiga kelgan davr bilan bugungi O‘zbekiston o‘rtasidagi farqqa alohida urg‘u berdi. O‘z samimiyatini yashirmadi.

Davomi 2-betda

## INSON KAPITALI, ILM-FAN, YOSHLAR SALOHİYATI VA YANGI TARAQQIYOT BOSQICHI

1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi mamlakatimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. Aynan milliy istiqlol yurtimizga jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallash, demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish hamda hayotning turli sohalarida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Shu nuqtayni nazardan, Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi nafaqat tarixiy sanani nishonlash, balki o‘tgan davrda mamlakatimizning inson kapitali, ilmiy-intellektual salohiyati va ma‘naviy taraqqiyotida qanday o‘zgarishlar yuz berganini sarhisob qilish uchun ham muhim bosqichdir. Bu jarayonni shartli ravishda ikki yirik bosqichga ajratish mumkin. Dastlabki davr mustaqil davlatchilik, milliy institutlar va taraqqiyotning huquqiy-institutsional asoslarini shakllantirish davri bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi davr mazkur salohiyatni

kengaytirish, modernizatsiya qilish, qamrovni oshirish va uning natijadorligini kuchaytirishga qaratilgan yangi bosqich sifatida namoyon bo‘ldi.

Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda davlatimiz rahbari boshchiligidagi inson kapitali, ta‘lim, ilm-fan, madaniyat, sport va yoshlar siyosatiga uzoq muddatli taraqqiyotimizni ta‘minlovchi tizimning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida qaralayotir.

2016-yil mamlakatimiz tarixida yangi taraqqiyot bosqichiga yo‘l ochgan muhim davr sifatida alohida o‘rin tutadi. Zero, aynan shu yilda O‘zbekistonning siyosiy hayotida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi, davlat va jamiyat taraqqiyotini yangi yondashuvlar asosida davom ettirish uchun muhim zamin yaratildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yil 7-fevralda imzolangan Harakatlar strategiyasi mamlakat hayotining barcha jabhasida keng ko‘lamli islohotlarga yangi sur‘at bag‘ishladi. Mazkur hujjat bilan ijtimoiy soha ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylantirildi.

Davlatimiz rahbarining ushbu sohalardagi faoliyatga shaxsiy yondashuvi mohiyatini quyidagi tezis bilan ifodalash mumkin: **“Bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz. Oila bilimli, ma‘rifatli bo‘lsa, butun jamiyat bilimli, ma‘rifatli bo‘ladi”**. Bu g‘oya nafaqat xotin-qizlar ta‘limi, balki inson kapitaliga davlat siyosatining markaziy yo‘nalishi sifatida qaralishining ramziga aylandi.

Davomi 3-betda

2026-yil 26-avgust, 174-son

## ABADIY DOʻSTLIK RISHTALARI BILAN MUSTAHKAMLANGAN MING YILLIK QARDOSHLIK

Boshlanishi 1-betda

“Shavkat Miromonovich Oʻzbekistonga rahbarlik qilishni boshlaganida vaziyat mutlaqo boshqacha edi. Mamlakatni rivojlanish yoʻliga olib chiqish, iqtisodiy poydevorni shakllantirish, sanoat va qishloq xoʻjaligini rivojlantirish, investitsiyalar jalb qilish uchun u juda katta saʼy-harakatlarni amalga oshirishiga toʻgʻri keldi.

Bugun biz mutlaqo boshqa Oʻzbekistomni — xalqaro hamjamiyatning juda hurmatli aʼzosi boʻlgan, sanoat, qishloq xoʻjaligi, energetika va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirayotgan Oʻzbekistomni koʻrib turibmiz”, dedi Ilhom Aliyev.

Mana shu oliy eʼtirofning oʻziyoq Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida keyingi yillarda xalqimiz nihoyatda ulkan yuksalish marralarini zabt etganini anglatadi.

Endi Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning 23-24-avgust kunlari

ordeni topshirildi. Oʻz navbatida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonning oliy davlat mukofoti — “Haydar Aliyev” ordeni bilan taqdirlandi.

Ozarbayjon Prezidenti yuksak eʼtirof uchun mamlakatimiz yetakchisi va xalqimizga minnatdorlik izhor etib, doʻstlik va oʻzaro hurmat ruhidagi har tomonlama hamkorlik yanada mustahkamlanishga ishonch bildirdi.

Bizning Prezidentimiz esa “Siz ulugʻ otangiz — atoqli davlat arbobi Haydar Aliyevning ishini munosib davom ettirmoqdasiz. Sizning rahbarligingizdagi oqilona islohotlar tufayli Ozarbayjon taraqqiyot borasida va xalqaro maydonda ulkan yutuqlarga erishmoqda”, deya alohida lutf etdi.

Eʼtibor bersak, davlat rahbarlarining bir-biriga koʻrsatgan mehri ehtiromi, avvalo, ikki xalqning birligi, abadiy doʻstligi ifodasi ekaniga amin boʻlamiz. Chunki bunday samimiy izhorlar dillardan dillarga,

tovar ayirboshlash hajmi endi orzu emas, yaqin yillarda erishiladigan real maqsadga aylangan.

Uzoq vaqt urush oʻchogʻi boʻlib kelgan Qorabogʻ hududida 2020-yili qayta tiklash ishlari boshlandi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bu ezgu harakatga Oʻzbekiston ham hissa qoʻshdi. Xususan, mamlakatimizning moddiy-maʼnaviy koʻmagi bilan 2023-yil avgustda Fuzuliyl shahrida 600 ga yaqin oʻquvchi oʻrniga moʻljallangan Mirzo Ulugʻbek nomidagi maktab ochildi.

Prezident Ilhom Aliyev intervyyularining birida Fuzuliyl shahrida Oʻzbekiston koʻmagi bilan buyud etilgan Mirzo Ulugʻbek nomidagi maktab uchun Oʻzbekiston tomoniga minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, Ilhom Aliyev oʻshanda muhim bir faktni — Oʻzbekiston Qorabogʻni tiklashda yordam koʻrsatish tashabbusi bilan chiqqan birinchi mamlakat ekanini qayd etgandi.

Ozarbayjon Prezidentining Oʻzbekistonga tashrifi doirasida Yangi Toshkentda Nizomiy nomidagi Oʻzbekiston milliy pedagogika universitetining yangi kampusi tantanali ochildi. Bu yerda 20 ming talabaga moʻljallangan oʻquv binolari hamda 5000 oʻrinli talabalar turar joylarini tashkil etish koʻzda tutilgan.

Davlatimiz rahbarining Ozarbayjonga oʻtgan yilgi tashrifida Boku shahrining “Oq shahar” mavzesida “Oʻzbekiston” bogʻiga tamal toshi qoʻyilgan edi. Bu galgi tashrif doirasida esa Yangi Toshkentda “Ozarbayjon” bogʻini barpo etish ishlari start berildi.

Bogʻ uchun Yangi Toshkentda 4 gektar maydon ajratilgan. Bu yerda Ozarbayjonning boy madaniyati, koʻp asrlik tarixi va milliy anʼanalarini aks ettiradigan zamonaviy jamoat makoni tashkil etilishi koʻzda tutilmoqda. Bunday loyihalar nafaqat davlatlar, balki xalqlarimizning ham bir-biriga munosabati va hurmatini oshiradi, ahilligini mustahkamlaydi.



boʻlib oʻtgan uchrashuvlari va erishilgan kelishuvlar tafsilotlariga toʻxtalsak.

Shubhasiz, Ozarbayjon yetakchisining mamlakatimizga davlat tashrifining eng muhim voqeeligi, bu — Abadiy doʻstlik toʻgʻrisidagi shartnomaning imzolangani boʻldi.

Oʻzbeklarda ham, ozarbayjonlarda ham “Doʻstlik” tushunchasi ota-bobolarimizdan meros kelayotgan muqaddas tutumlar qadriyati bilan oʻlchanadi. Toʻn kiyib, non tishlab doʻst boʻlgan oʻgʻlonlar Vatani, xalqi, oilasi, yaqinlari or-nomusi, saodati uchun birga kurashadi, yaxshi-yomon kunlarda yelkadosh boʻladi, sadoqat hissi qon-qoniga singib ketadi.

Davlatlar oʻrtasidagi Abadiy doʻstlik ahdi ham shunga monand. Qisqacha aytganda, bu kelishuvni imzolagan davlatlar endilikda mushtarak kelajakni barpo etishga birgalikda intilish maqsadini anglatadi.

Demak, Oʻzbekiston va Ozarbayjon endi nafaqat ishonchli ittifoqchi, strategik sheriklar, balki abadiy doʻst davlatlardir.

Tashrifning navbatdagi taʼsirli voqeeligi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevga Oʻzbekiston Respublikasining oliy davlat mukofoti — “Oliy Darajali Doʻstlik”

“**DAVLATLAR OʻRTASIDAGI ABADIY DOʻSTLIK AHDI HAM SHUNGA MONAND. QISQACHA AYTGANDA, BU KELISHUVNI IMZOLAGAN DAVLATLAR ENDILIKDA MUSHTARAK KELAJAKNI BARPO ETISHGA BIRGALIKDA INTILISH MAQSADINI ANGLATADI.**

pensiya kabi qator yoʻnalishlarda hamkorlikni rivojlantirish, shaharlarimiz oʻrtasida birodarlik munosabatlarini oʻrnatishga doir oʻnga yaqin hujjat imzolangani esa alohida katta mavzu.

Bu boradagi tasavvurlarni uygʻotish uchun bitta misol keltirish yetarli boʻladi, nazarimizda. Ozarbayjon Prezidenti eʼtirof etganidek, Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston rahbarligiga kelguniga qadar ikki mamlakat oʻrtasida birorta ham qoʻshma loyiha boʻlmagan. Bugun esa 1 milliard dollarlik

Bugungi iliq munosabatlar davrida ulgʻaygan, “Ozarbayjon” bogʻidan nafas olgan oʻzbek yoshlari hamda “Oʻzbekiston” bogʻini sayr etgan ozarbayjon yoshlari bir tanu bir jon boʻlib, bundan ham katta islohotlarni amalga oshirishi, oʻzaro hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirib, ikki mamlakat taraqqiyotiga hissa qoʻshishi shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV,  
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

## EʼTIBOR VA RAGʻBAT YUKSAK MARRALAR SARI CHORLAYDI

Vatanimiz mustaqilligining 35 yillik toʻyi arafasida davlatimiz rahbarining farmoni bilan “Oʻzbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoniga loyiq koʻrilganim qalbimni taʼrifsiz hayajon, cheksiz faxr va ulkan masʼuliyatga toʻldirdi.

Bu yuksak eʼtirof nafaqat mening kamtarona mehnatlarimga, balki oʻzbek milliy maqomiga, mumtoz ashulachilik sanʼati va zamonaviy estrada yoʻnalishiga davlatimiz tomonidan koʻrsatilayotgan gʻamxoʻrlikning amaliy namunasidir.

Sanʼat olamidagi ilk qadamlarimdan buyon meni qoʻllab-quvvatlab, har bir taronamga ilhom berib kelayotgan aziz xalqimizning ishonchi ushbu mukofotning bosh poydevori, desam adashmayman.

Aslida, ijodkor uchun eng katta baxt kuy-qoʻshiqlari bilan el yuragidan joy olish, mehnatining munosib qadrlanishini koʻrish va qalban his qilishdir. Istiqlol shukhi kezib turgan shu fayzli kunlarda men ana shunday ardoqdaman va bundan boshim koʻkka yetmoqda.

Soʻnggi yillarda madaniyat va sanʼat sohasidagi tarixiy islohotlar, ijod ahliga yaratilayotgan keng imkoniyatlar barchamizni yangidan-yangi marralar sari ruhlantirmoqda.



### Dildagi gaplar

Men uchun “Oʻzbekiston Respublikasi xalq artisti” unvoni ijodiy faoliyatimdagi yangi, zalvarli va shiddatli bir davrning boshlanishi boʻldi. Bu ishonch yelkamdagi masʼuliyatni ikki hissa oshirib, oʻzbek sanʼatini jahon sahnalarida yanada baland tarannum etishga undaydi.

Mashaqqatli sanʼat sirlarini sid-qidildan oʻrgatgan ustozlarimga, hayo-timning har bir lahzasida tirgak boʻlgan oila aʼzolarimga va qoʻshiqlarimni yaxshi koʻrgan muxlislarimga taʼzim qilaman.

Ona Vatanimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, mehnatkash va mehmondoʻst xalqimizning azaliy qadriyatlarini, insonlar oʻrtasidagi doʻstlik, sevgi va muhabbat rozlarini kuylashdan aslo tolmayman.

Bildirilgan ushbu yuksak ishonchni oqlash, jonajon Oʻzbekistonimiz



dovrugʻini goʻzal va takrorlanmas sanʼat vositasida dunyo sahnalariga yoyish uchun bor isteʼdodim, kuch-gʻayratim, mahoratim va sohir ovozim bilan harakat qilaman.

Shu fursatdan foydalanib, “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi sahifalari orqali hurmatli Prezidentimizga sanʼat ahlini har tomonlama qoʻllab-quvvatlayotgani uchun oʻz nomimdan hamkasblarimiz nomidan cheksiz minnatdorlik bildiraman.

Yuksak ishonchni oqlash, jonajon Oʻzbekistonimiz dovrugʻini qoʻshiqlarim bilan koʻklarga koʻtarish uchun hayotimni, qalbimni va sohir ovozimni baxshida etishga hamisha tayyorman!

Yulduz TURDIYEVA,  
Oʻzbekiston xalq artisti

## Sergey LEBEDEV: “OʻZBEKISTON MDH RIVOJNING ASOSIY HARAKATLANTIRUVCHI KUCHIGA AYLANDI”

MDH Bosh kotibi Sergey Lebedev Oʻzbekiston mustaqilligining 35 yilligi arafasida “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berdi.

— Oʻzbekiston oʻz mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlamoqda. Mamlakat bu yoʻlni Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH)dagi hamkorlari bilan birga bosib oʻtdi. Aytinch-chi, yurtimizning MDHdagi oʻrni qanchalik muhim?

— Oʻtgan yillar davomida Oʻzbekiston tashqi siyosat maydonida xorijiy davlatlar bilan keng munosabatlar tizimini shakllantirdi, mintaqaviy va global jarayonlardagi taʼsirini kengaytirdi hamda xalqaro maydonda munosib nufuzga ega boʻldi. Shu bilan birga, respublika MDHdagi sheriklari bilan aloqalarga doimo ustuvor ahamiyat qaratib keldi.

Soʻnggi oʻn yillikda mamlakat MDH doirasidagi munosabatlarda faol ishtirok etmoqda. Agar 2016-yilda Oʻzbekiston Hamdoʻstlik doirasida hamkorlikning 29 ta asosiy yoʻnalishida ish olib borgan boʻlsa, bugun ushbu koʻrsatkich 51 ta sohaviy organlarni qamrab olgan. Umuman, Oʻzbekistonning tegishli idoralari vakillari Hamdoʻstlik eʼtibor qaratayotgan 66 ta yoʻnalishning barchasida turli maqomlarda faoliyat yuritmoqda.

Bugun Oʻzbekiston butun MDH rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz aholi soni boʻyicha MDHda ikkinchi oʻrinda turadi. Oʻzbekiston rekord darajadagi iqtisodiy oʻsish surʼatlarini namoyon etmoqda.

— MDHga aʼzo davlat sifatida Oʻzbekiston Hamdoʻstlik doirasida samarali va oʻzaro manfaatli aloqalarini yanada kengaytirish tarafdori. Integratsiya jarayonlarida, tabiiyki, iqtisodiyot markaziy oʻrinni egallaydi. Sizingcha, Oʻzbekiston MDHning iqtisodiy integratsiya jarayonlarida qanday ishtirok etmoqda?

— Oʻzbekiston MDH doirasida hamkorlikni rivojlantirishda eng faol va tashabbuskor ishtirokchilardan biri hisoblanadi. Shuni taʼkidlash kerakki, kelasi yil MDHga Oʻzbekiston raislik qiladi. Bundan avval, 2020-yilda ham respublika MDHda asosiy tashkilotchilik vazifalarini muvaffaqiyatli bajargan edi.

Oʻzbekistonning birinchi raisligi davrida tashkilotning keyingi yillardagi rivojlanish yoʻnalishlarini belgilab bergan muhim hujjatlar qabul qilindi. Bular 2020-yil 18-dekabr kuni qabul qilingan MDHni yanada rivojlantirish konsepsiyasining yangi tahriri va uni amalga oshirish boʻyicha asosiy chora-tadbirlar rejasini, 2020-yil 29-may kuni tasdiqlangan 2030-yilgacha boʻlgan davr uchun MDHning iqtisodiy rivojlanish strategiyasidir.

Oʻzbekistonning Hamdoʻstlikdagi strate-gik ustuvor yoʻnalishlari soʻnggi oʻn yillikda oʻzgarmadi. Bu, avvalo, MDH ishtirokchi davlatlari oʻrtasida oʻzaro manfaatli iqtisodiy va boshqa aloqalarini har tomonlama mustahkamlashdan iborat.

Respublikaning MDHdagi deyarli barcha davlatlar bilan munosabatlarini strategik sheriklik sifatida baholash mumkin. Belarus, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari bilan soʻnggi yillarda imzolangan tegishli ikki tomonlama deklaratsiyalar va hujjatlar ham buni tasdiqlaydi.

Aynan Oʻzbekiston bir necha yil avval MDH ishtirokchi davlatlarining sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2030-yilgacha rivojlantirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Soʻnggi 10 yilda Oʻzbekistonning tashqi savdo aylanmasi 4 barobar oshib, 20 milliard dollardan 81 milliard dollarga yetdi. 2025-yil yakunlariga koʻra, respublika tashqi savdosining uchdan bir qismi MDH davlatlari hissasiga toʻgʻri keldi. 2026-yilning birinchi yarmida esa bu koʻrsatkich 37,8 foizga yetdi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonning MDH davlatlari bilan eksport operatsiyalari hajmi ham izchil oʻsib bormoqda. 2023-yilda ushbu koʻrsatkich avvalgi yilga nisbatan 4,1 foizga, 2024-yilda 11,9 foizga, 2025-yilda esa 19,4 foizga oshdi. Hamdoʻstlik davlatlarida Oʻzbekiston tovar va xizmatlariga talab tobora ortib bormoqda. Bu mamlakatda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish oʻrinlari

yaratish, ish haqini koʻpaytirish hamda aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Hamdoʻstlik organlarida Oʻzbekiston iqtisodiyot tarmoqlari, davlat boshqaruvi va ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirishga oid qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda faol ishtirok etmoqda. Mamlakat vakillari innovatsion salohiyatni birgalikda oshirish choralarini koʻrishga ham katta qiziqish bildirmoqda.

Oʻtgan yili Dushanbe shahrida boʻlib oʻtgan davlat rahbarlari sammitida Oʻzbekiston Prezidenti mamlakat maxsus iqtisodiy zonalarini qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirish boʻyicha “yoʻl xaritasi”ni ishlab chiqish, startaplar va innovatsiyalarni ilgari surish uchun MDH venchur platformasini tashkil etish rejalarini bildirdi. Shuningdek, MDH energetika sektorining innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

Joriy yil aprel oyida Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “INNOPROM. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat koʻrgazmasi doirasida “MDHning innovatsion sanoati: davlatlararo kooperatsiyaning yangi modeli” nomli forum boʻlib oʻtdi.

Oʻzbekistonning MDH davlatlari oʻrtasida iqtisodiy va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki haqida gapirganda, uning mintaqalararo va chegaraoldi hamkorlikni faollashtirishga qoʻshayotgan hissasini alohida taʼkidlash kerak. Aynan Oʻzbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2025-yilda Toshkentda MDH ishtirokchi davlatlarining birinchi Hududlar forumi oʻtkazildi. Unda Hamdoʻstlik davlatlari hududiy hokimiyat idoralari va biznes jamajiyatlari vakillari ishtirok etdi.

“**Shuningdek, Oʻzbekistonda boʻlib oʻtgan “MDH Yoshlar poytaxti” xalqaro loyihasi koʻpchilikda katta taassurot qoldirdi. 2024-yilda Toshkent shahrining MDH Yoshlar poytaxti sifatidagi maqomi Hamdoʻstlik mamlakatlari yoshlariga sifati taʼlim olish, hordiq chiqarish, sport bilan shugʻullanish, ijodiy faollikni namoyon etish, mehnat qilish va foydali mashgʻulotlar bilan band boʻlish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.**

— MDHga aʼzo davlatlar milliy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilishga qaratilgan tashqi siyosat yuritadi. Bu borada Oʻzbekistonning pozitsiyasi qanday va mamlakatda amalga oshirilayotgan ishlar MDH faoliyatiga qanchalik taʼsir koʻrsatmoqda?

— MDH ishtirokchi davlatlari oʻrtasidagi siyosiy hamkorlik doirasida Oʻzbekiston yetakchi oʻrinni egallaydi. Shu bilan birga, soʻnggi yillarda BMT Bosh Assambleyasi doirasida Oʻzbekiston tomonidan taklif etilgan oʻndan ortiq maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Shunday hujjatlardan biri 2026-yilda qabul qilingan “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish” nomli rezolyutsiya boʻldi. Bunday qarorlarni qabul qilishda MDH davlatlarining koʻmagi muhim ahamiyatga ega.

Mazkur chora-tadbirlar Oʻzbekistonning xalqaro nufuzini oshirmoqda. Shu bois, mamlakatning xalqaro maydondagi ovozi tobora kuchliroq eshitilmoqda. Yurt taraqqiyoti va farovonligi yoʻlida respublika rahbariyati mintaqaviy tashkilotlar va integratsiya birlashmalarining keng imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intilmoqda. Oʻzbekiston Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomiga ega, Shanxay hamkorlik tashkilotining faol aʼzosi hisoblanadi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan turli shakllarda hamkorlikni rivojlantirmoqda.

— Oʻzbekistonda ochiqlik siyosati amalga oshirilmogda. Bu xorijiy hamkorlar bilan sheriklik aloqalarini har tomonlama mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aytinch-chi, respublika tomonidan bu yoʻnalishda amalga oshirilgan qaysi ishlar MDH faoliyatida eʼtiborga tushmoqda?

— Oʻzbekistonda MDHning umumiy maqsadlari toʻliq qoʻllab-quvvatlanayotganini koʻrish quvonarli. Yaʼni mamlakatlar oʻrtasida ishonchni mustahkamlashga doimiy



eʼtibor qaratilmasa, hech qanday iqtisodiy yoki siyosiy faoliyat rivojlanmaydi.

2024-yilda Samarqand shahrida “Hamdoʻstlikning madaniy poytaxtlari” davlatlararo dasturining amalga oshirilishi MDH hayotidagi yorqin voqealardan biri boʻldi. Ushbu yirik tadbirda Hamdoʻstlik davlatlarining ijodiy jamoalari va sanʼatkorlari ishtirok etdi. Keyinchalik MDH davlatlari madaniyati, sanʼati va kinosi haftaligi, adabiy-maʼrifiy uchrashuvlar va taqdimotlar, Hamdoʻstlik davlatlari kutubxonachilari konferensiyasi oʻtkazildi.

Shuningdek, Oʻzbekistonda boʻlib oʻtgan “MDH Yoshlar poytaxti” xalqaro loyihasi koʻpchilikda katta taassurot qoldirdi. 2024-yilda Toshkent shahrining MDH Yoshlar poytaxti sifatidagi maqomi Hamdoʻstlik mamlakatlari yoshlariga sifati taʼlim olish, hordiq chiqarish, sport bilan shugʻullanish, ijodiy faollikni namoyon etish, mehnat qilish va foydali mashgʻulotlar bilan band boʻlish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

— Bugungi global beqarorlik va nizolar xavfi ortib borayotgan sharoitida xalqaro xavfsizlikka tahdidlar tobora real tus olmoqda. Oʻzbekistonning MDHga aʼzo mamlakatlar bilan tahdidlarga qarshi

kurashish borasidagi saʼy-harakatlarini qanday baholaysiz?

— Tashqi tahdidlarga qarshi kurashish boʻyicha Hamdoʻstlik davlatlarining tegishli idoralari oʻrtasida yaqin munosabatlar oʻrnatilgan. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni taʼminlashda Oʻzbekiston tomonidan bildirilayotgan taklif va tashabbuslar muhim ahamiyatga ega.

Xususan, 2026-2030-yillarga moʻljallangan MDH ishtirokchi davlatlarining tashqi chegaralarda xavfsizlikni mustahkamlash boʻyicha hamkorlik dasturi joriy etildi. Ushbu dastur doirasida Oʻzbekiston chegara xavfsizligini mustahkamlash va amaliy tajriba almashish boʻyicha qoʻshma tadbirlarda faol ishtirok etmoqda.

Jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish sohalarida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada insonparvarlik xususiyatiga ega boʻlgan hujjatlardan biri aynan Oʻzbekiston tomonidan tashabbus koʻrsatilib, ishlab chiqildi. Bu radikal qarashlar va usullarning tarqalishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, ekstremistik faoliyatga jalb etilgan shaxslarning normal hayotga qaytishini taʼminlashga qaratilgan 2025-2027-yillarga moʻljallangan MDH ishtirokchi davlatlarining deradikalizatsiya sohasidagi hamkorlik dasturidir.

Umuman olganda, Oʻzbekiston mustaqilligining 35 yilligiga jamiyat hayo-tining barcha sohalaridagi salmoqli natijalar va kelajakka ishonch uygʻotadigan istiqbollar bilan qadam qoʻymoqda. Hamdoʻstlik doirasidagi hamkorlik mazkur muvaffaqiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanidan mamnunmiz.

Ushbu qutlugʻ yubiley arafasida Oʻzbekiston xalqiga tinchlik va farovonlik tilaymiz. MDH tomonidan ayni ezgu tilaklarning amalga oshishi uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi va buning uchun astoydil harakat qilamiz.

“Dunyo” AA



# INSON KAPITALI, ILM-FAN, YOSHLAR SALOHİYATI VA YANGI TARAQQIYOT BOSQIHI



**Nodir JUMAYEV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
Fan, ta’lim, madaniyat, sport  
va yoshlar masalalari qo‘mitasi  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor



**Odiljon IMINOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
Fan, ta’lim, madaniyat, sport va  
yoshlar masalalari  
qo‘mitasi raisi  
o‘rinbosari

## Boshlanishi 1-betda

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ta’lim, fan, madaniyat, sport va yoshlar siyosati aniq maqsadli ko‘rsatkichlarga ega alohida yo‘nalishlar sifatida belgilandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa oila, bolalar va yoshlarga alohida bob bag‘ishlanib, yosh avlodning huquqlari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Bu mustaqillik tarixida birinchi bor o‘y bergan hodisa edi.

2016-2026-yillardagi o‘zgarishlarning eng yaqqol ko‘rinishi ta’lim sohasida namoyon bo‘ldi. Bunda asosiy tendensiya ta’limning inson kapitali va mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotidagi strategik rolini qayta belgilashdan iborat bo‘ldi. Prezidentimizning 2026-yil 5-fevraldagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan shu yil 1-apreldan boshlab maktabgacha ta’lim qamrovi 80 foizdan past bo‘lgan tuman (shahar)lardagi (Toshkent shahri bundan mustasno) tadbirkorlik subyektlari uchun alohida imtiyozlar joriy etildi.

2017-yilda 4000 dan ortiq mahallada birorta ham bolalar bog‘chasi mavjud emas, maktabgacha ta’limga qamrov esa 27 foizdan oshmasdi. Keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkich keskin o‘zgardi. Bog‘chalar soni 38 mingdan oshdi, maktabgacha ta’lim qamrovi 78 foizdan yuqori darajaga yetdi. Bu raqamlarning ahamiyati muassasalar sonining ko‘payishidan ko‘ra kengroq. Maktabgacha ta’limga qamrovning oshishi ta’lim tizimining eng quyi bo‘g‘inida davlat siyosatining ustuvorligi o‘zgarganini ko‘rsatadi. Ya’ni bolaning ta’lim olish jarayoniga ilk rivojlanish bosqichidan boshlanadigan uzluksiz tizim sifatida qaralmoqda.

2026-yilda ham ushbu yo‘nalishdagi vazifalar yakunlanib deb baholanmadi. Ma’lumotga ko‘ra, maktabgacha ta’lim qamrovi oshgan bo‘lsa-da, 39 ta tuman va shaharda bu ko‘rsatkich 70 foizdan pastligicha qolmoqda. Shuningdek, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining 61 foizi, nodavlat bog‘chalar pedagoglarining 76 foizi o‘rta maxsus ma’lumotga ega ekani kadrlar sifati masalasi keyingi bosqichdagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Demak, maktabgacha ta’limda birinchi bosqich qamrov muammosini hal qilish, keyingi bosqich esa sifat va pedagogik salohiyatni oshirish bo‘lmoqda.

Maktab ta’limida ham miqdoriy va sifat o‘zgarishlari bir vaqtda kechdi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025/2026-o‘quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni 11 ming 118 tani tashkil etgan. Ayni ko‘rsatkich 2016-yildagi 9692 tadan 1426 ta ko‘p. Mavjud ta’lim muassasalari kengaytirildi va natijada 1 millionga yaqin yangi o‘quvchi o‘rni ochildi. 2025/2026-o‘quv yili boshida

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning umumiy soni 6 million 870,5 ming nafarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan o‘quv yilidagiga nisbatan 94,2 mingga ko‘paygan.

Ta’limda davlat monopoliyasi modelidan davlat va nodavlat sektor ishtirokidagi ko‘p subyektlilik tizimga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, 2025/2026-o‘quv yili boshida yurtimizda 551 ta nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatgan. Besh yil avval esa bu ko‘rsatkich 100 dan sal oshar edi.

Oliy ta’limdagi transformatsiya esa yanada keng ko‘lamli bo‘ldi. 2016-yilda oliy ta’lim tashkilotlari soni 77 tadan 2025/2026-o‘quv yili boshida 215 taga oshdi. Ularning 97 tasi nodavlat oliygo‘h. Talabalar soni esa 250 mingdan 1,7 millionga yetdi. Bu oliy ta’limning nafaqat hajman kengaygani, balki mamlakatimizda yuqori malakali kadrlarga talabni qoplash uchun yangi ta’lim ekotizimi shakllanayotganini ko‘rsatadi.

2026-yilga kelib, talabalar qanday bilim va ko‘nikma bilan mehnat bozoriga kirib borishi asosiy masalalardan biri bo‘ldi. Shu bois, 2026-yilda muhandislik maktablari, texnika universitetlari, dual ta’lim, sanoat bilan hamkorlik va ilmiy-innovatsion faoliyatni kuchaytirishga alohida urg‘u berilayotir.

Shunday qilib, ta’lim sohasidagi o‘n yillik tendensiyaning “qamrov — sifat — mehnat bozoriga moslik — innovatsiya” janjiri orqali ifodalash mumkin. Ta’limdagi kengayish ilmiy fan bilan uzviy bog‘lanmasa, inson kapitali samaradorligi cheklangan bo‘ladi. Shu sababli so‘nggi yillarda ilmiy fan siyosatida ham institutsional o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yildagi Murojaatnomasida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish, tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari va innovatsion markazlarni rivojlantirish zarurati alohida ta’kidlangan edi.

Keyingi bosqichda bu siyosat ta’lim va ilmiy-fanni iqtisodiyot bilan yaqinlashtirishga qaratildi. 2026-yilda oliy ta’lim tashkilotlarida ilmiy salohiyat 41 foizdan 45 foizga yetgani qayd etildi. Biroq ilmiy tadqiqotlarning bir qismi hali ham sanoat va ishlab chiqarishdagi zamonaviy tendensiyalar bilan yetarlicha bog‘lanmaganini ochiq aytiladi.

Bu juda muhim nuqta. Chunki islohotlarning yangi bosqichida mezon “ilmiy darajaga ega kadrlar soni” bilan cheklanmaydi. Endi ilmiy natijaning iqtisodiyot, texnologiya va ishlab chiqarishga ta’siri asosiy masalaga aylanmoqda.

2026-yil aprelda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini yanada takomillashtirish

masalalari muhokama qilinganda, ilmiy-fanni iqtisodiyot bilan uzviy bog‘lash va ta’lim-tadqiqot integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb vazifa sifatida qayd etildi. Shu asosda “U10 — O‘zbekistonning global darajadagi ilg‘or universitetlari” dasturini amalga oshirish va tanlov asosida 10 ta oliy ta’lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomini berish rejalashtirildi. Shu ma’noda, 2016-2026-yillardagi ilmiy-fan sohasidagi o‘zgarishlarni “ilmiy salohiyatni saqlash”dan “ilmiy natijani iqtisodiy va texnologik qiymatga aylantirish”ga o‘tish sifatida baholash mumkin.

Ikki pog‘onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) tizimi joriy etildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun 2020-yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Shuningdek, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi va “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi O‘zbekistonda ilmiy-fan, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar tizimli rivojlantirishga xizmat qilayotir.

Ilm-fanga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar so‘nggi yillarda bir necha baravar oshirildi, yosh olimlar soni 6500 dan 11 mingga yetdi.

Mustaqillik yillarida milliy tarix, madaniy meros va milliy o‘zlikni anglash masalalari alohida ahamiyat kasb etdi. Bu jarayon 2016-yildan keyin yangi mazmun bilan boyidi. Madaniyatga nafaqat merosni saqlash, balki jamiyat ma’naviyati, ijodiy industriyalar va mamlakatning xalqaro imjini shakllantiruvchi resurs sifatida qarala boshladi.

Joriy yilda davlatimiz rahbari ishtirokida madaniyat va san’at vakillari bilan o‘tkazilgan muloqotda teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg‘u, tasviriy va amaliy san’at kabi 21 yo‘nalishda ijodiy birlashmalar tashkil etish belgilandi. Bu madaniyat sohasida ijodkorlarni ko‘llab-quvvatlashning yangi institutsional modeli shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Qabul qilingan yangi chora-tadbirlar madaniyatni davlat byudjetiga to‘liq bog‘liq sohadan davlat, ijodkor va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan ekotizimga aylantirishga qaratilgan. Xususan, 2026-yildan nodavlat teatr va teatr-studiyalarini ko‘llab-quvvatlash, madaniy tadbirlarga subsidiyalarni ajratish, ijodkorlar uchun davlat buyurtmalari joriy etish belgilandi. Har yili kamida 50 ta adabiy asar yaratish, milliy adabiyotning eng yaxshi 10 ta asarini xorijiy tillarga tarjima qilish uchun davlat buyurtmasi mexanizmlari belgilandi.

Madaniy merosni xalqaro maydonga olib chiqish ham yangi tendensiyaga aylanmoqda. 2026-2027-yillarda Dohadagi Islom san’ati muzeyi, Milandagi Prada jamg‘armasi, Venetsiyadagi Palazzo Grimani va Yaponiyaning Nara milliy muzeyida O‘zbekistonning arxeologik, tarixiy va amaliy san’at merosini namoyish etish rejalashtirilgan. Demak, madaniyat sohasidagi transformatsiyani “merosni saqlash — ijodkorlarni ko‘llab-quvvatlash — kreativ iqtisodiyot — milliy madaniy mahsulotni xalqaro bozorga olib chiqish” janjirida ko‘rish mumkin.

Sport sohasida ham so‘nggi o‘n yillikda institutsional yondashuv o‘zgardi. Masala endi faqat sport inshootlari qurish yoki aholini jismoniy tarbiyaga jalb qilish bilan cheklanmay, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tayyorlash, ilmiy-tibbiy ta’minot va xalqaro musobaqalarda yuqori natija ko‘rsatish tizimi bilan bog‘lanmoqda.

Bu o‘zgarishning eng yorqin natijalaridan biri Parij olimpiadasida namoyon bo‘ldi. 2024-yilda O‘zbekiston 19 ta sport turi bo‘yicha 90 sportchi bilan ishtirok etib, 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi. Shu tariqa mamlakatimiz umumjamoa hisobida 13-o‘rinni, Osiyoda 4-o‘rinni egalladi. Prezidentimiz bu natijani O‘zbekiston Olimpiya tarixida ilgari bo‘lmagan yutuq sifatida baholadi.

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarining umumiy natijasi esa 39 ta medalni tashkil qildi va O‘zbekiston 200 dan ortiq davlat orasida 13-o‘rinni egalladi. Bu mamlakatimiz sporti tarixidagi eng yuqori natija bo‘ldi.



So‘nggi yillarda yoshlar siyosatidagi o‘zgarishlarning eng muhim jihati yoshlarni mamlakatimiz taraqqiyotining faol subyekti sifatida ko‘rish tendensiyasining kuchayishidir. Mazkur yondashuv ta’lim, bandlik, tadbirkorlik, madaniyat, sport va siyosiy ishtirokni yagona yoshlar siyosati doirasida birlashtirishga olib keldi.

2026-yilda taqdim etilgan “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasi bu jarayonning yangi bosqichini ifodalaydi. Bugun yurtimiz aholisi 39 milliondan ziyod, uning qariyb 25 foizi 14-30 yoshlilardan iborat. Har yili 270 mingta yangi yosh oila shakllanayotgani yoshlar siyosatiga uzoq muddatli va tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Yangi strategiyada yoshlar bandligi va tadbirkorligi, sifati va inkluziv ta’lim, xorijiy tillar, kasbiy ta’lim, mehnat bozori, yosh oilalarni ko‘llab-quvvatlash, madaniy va jismoniy rivojlanish, volontyorlik, salomatlik, ochiqlik va qaror qabul qilishda ishtirok kabi yo‘nalishlar bir tizimga birlashtirilmoqda. Bu yondashuv yoshlar siyosatining mazmunidagi muhim siljishni anglatadi. Ya’ni “yoshlarga yordam berish”dan “yoshlarga imkoniyat berish”ga, “yoshlar uchun qaror qabul qilish”dan “yoshlarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish”ga katta e’tibor berilayotir.

Shu nuqtayi nazardan yoshlar siyosati ta’lim va mehnat bozori siyosati bilan tobora ko‘proq integratsiyalashmoqda. 2026-yilning yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish yili sifatida belgilanishi ham shu tendensiyaning davomi bo‘ldi. Bu borada davlatimiz rahbari “**Biz yoshlarimizni nafaqat zamon bilan hamnafas, balki kelajakka tayyor qilib tarbiyalashimiz kerak. Hech qachon unutmaylik, kelajak zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yangi kasb egalarini bo‘ladi**”, degan edi.

Mamlakatimizdagi 598 ta texnikumni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, 100 ta texnikumda xorijiy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va dual ta’lim qamrovini 5 barabar oshirish rejalari bunga misol bo‘la oladi.

So‘nggi yillardagi islohotlarni sohalar bo‘yicha alohida ko‘rib chiqish muhim, ammo ularning strategik ahamiyati aynan o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon ilmiy-fan bilan birlashtirilganda inson kapitali iqtisodiy qiymatga aylanishi mumkin. Shuning uchun 2026-yilda ta’lim va ilmiy-fanga xarajatlar 2017-yildan keyingi sakkiz yilda 6 barabar oshib, 378 trillion so‘mga yetgani alohida ahamiyatga ega.

Madaniyat ushbu tizimda insonning ma’naviy va ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lsa, sport jismoniy salohiyat, intizom va raqobatbardoshlikni rivojlantirish vositasiga aylanadi. Yoshlar ta’limi esa ta’lim, kasb, tadbirkorlik, siyosat va fuqarolik faolligini birlashtiruvchi kompleks mexanizm vazifasini bajaradi.

Shu ma’noda, so‘nggi o‘n yillikdagi islohotlarning umumiy formulasi: ta’lim + ilm-fan + madaniyat + sport + yoshlar = inson kapitali ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Davlat mustaqilligiga erishilishi mamlakatimiz oldiga milliy davlatchilikni shakllantirish, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning mustaqil asoslarini yaratish, milliy ta’lim va madaniyat institutlarini mustahkamlash, ilm-fan va inson salohiyatini rivojlantirish kabi strategik vazifalarni qo‘ydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ushbu yo‘nalishlarda milliy taraqqiyot modelining huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslari bosqichma-bosqich shakllantirildi.

2016-yilga kelib, mustaqillikning dastlabki 25 yili davomida barpo etilgan davlatchilik va ijtimoiy institutlar, shakllangan inson kapitali hamda to‘plangan tajriba mamlakatimiz

yoshlarning qonun ijodkorligidagi ishtiroki institutsional mazmun kasb etayotganini ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, qonun ijodkorligida qarorlar ta’sir qiladigan ijtimoiy guruhlar fikri va tashabbuslarini inobatga olish tamoyilining amaliy ifodasidir.

Ayni jarayon yoshlarning parlament faoliyatidagi ishtiroki faqat milliy doira bilan cheklanmay, xalqaro hamkorlik yo‘nalishida ham rivojlanayotganini ko‘rsatmoqda. Yoshlar parlamentining qo‘shni davlatlar yosh parlamentariylari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yayotgani kelgusida parlamentlararo muloqot, mintaqaviy hamkorlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiluvchi inson kapitali shakllanishi uchun muhim zamin yaratadi.

Mustaqillikning 35 yillik taraqqiyot tajribasiga nazar tashlaganda, mamlakatimiz

taraqqiyotining keyingi bosqichi uchun muhim zamin vazifasini bajardi. Shu nuqtayi nazardan, 2016-2026-yillar avvalgi bosqichda yaratilgan institutsional va ijtimoiy salohiyatni yangi sifat darajasiga olib chiqishga qaratilgan tizimli modernizatsiya davri sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur davrdagi islohotlarning muhim xususiyatlaridan biri davlat siyosatining inson kapitaliga yondashuvi mazmunan boyib borganida namoyon bo‘ldi. Ta’limda qamrov va sifati oshirish, ilm-fanda ilmiy salohiyat va amaliy samaradorlikni kuchaytirish, madaniyatda ijodiy salohiyat va milliy merosni rivojlantirish, sportda ommaviylik bilan bir qatorda yuqori natijadorlikni ta’minlash, yoshlar siyosatida esa ko‘llab-quvvatlash bilan birga o‘g‘il-qizlarning tashabbuskorligi va qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish o‘zaro bog‘liq ustuvor vazifalarga aylandi.

Shu bilan birga, 2026-yilga kelib, erishilgan natijalarni yakuniy nuqta sifatida emas, balki taraqqiyotning navbatdagi sifat bosqichi uchun boshlang‘ich imkoniyatlar sifatida baholash maqsadiga muvofiq. Maktabgacha va maktab ta’limida hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish, pedagoglar kasbiy salohiyatini yanada oshirish, oliy ta’lim sifatini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, ilm-fan natijalarini ishlab chiqarish va texnologik taraqqiyotga kengroq tatbiq etish, sportda mavjud, ammo hali to‘liq ishga solinmagan salohiyatdan samarali foydalanish, yoshlarning bandligi va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kabi masalalar keyingi bosqichning dolzarb vazifalaridir.

Bu holat islohotlarning tabiatiga xos qonuniyatni ko‘rsatadi. Muayyan miqdoriy natijaga erishish islohotlarning yangi sifat mezonlarini shakllantiradi. Boshqachaytqanda, qamrovning kengayishi sifati, sifatning oshishi raqobatbardoshlikni, raqobatbardoshlik esa innovatsion va ijtimoiy natijadorlikni ta’minlashga xizmat qilishi lozim.

Mazkur jarayonda yoshlarning qonun ijodkorligi va parlament faoliyatidagi ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzurida Yoshlar parlamentining faoliyat yuritayotgani, uning ko‘ppartiyaaviy asosda shakllantirilgani yoshlar bilan bog‘liq masalalarni keng siyosiy muloqot va umummilliy manfaatlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishga xizmat qilmoqda.

Yoshlar parlamentining qonun ijodkorligi jarayoniga jalb etilishi esa yoshlarni davlat boshqaruvi va parlament faoliyatiga tayyorlashning amaliy mexanizmlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, 150 yosh vakilning deputatlarga birkirtilishi, ular tomonidan tayyorlangan 400 dan ziyod taklif, jumladan, ta’lim, bandlik, oila munosabatlari va voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyi javobgarlikni liberalashtirishga oid tashabbuslarning tegishli qo‘mitalar tomonidan ko‘rib chiqilayotgani

bosib o‘tgan yo‘lni bir-birini to‘ldiruvchi ikki uzviy bosqich sifatida baholash mumkin. Birinchi bosqichda milliy davlatchilikning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi, ijtimoiy sohalarining milliy tizimlari shakllantirildi, mustaqil taraqqiyot uchun zarur salohiyat to‘plandi.

Ikkinchi bosqichda esa ana shu poydevor asosida keng ko‘lamli modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilib, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, sport va yoshlar siyosatida qamrov, sifat, natijadorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi. Shu bois, ushbu ikki bosqichni mustaqil taraqqiyotning o‘zaro uzviy va mantiqiy davom etuvchi jarayoni sifatida baholasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Eng muhimi, 35 yillik taraqqiyot natijalarini faqat tashkil etilgan muassasalar, ajratilgan mablag‘lar yoki erishilgan statistik ko‘rsatkichlar orqali baholash bilan cheklanib bo‘lmaydi. Ularning strategik mazmuni, avvalo, inson imkoniyatlarining kengayishi, bilim va kompetensiyalarga ega yangi avlod shakllanishi, ilmiy va ijodiy salohiyatning yuksalishi, yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi ishtiroki tobora ortib borayotganida namoyon bo‘ladi. Zero, ta’lim va ilm-fan inson kapitalining intellektual poydevorini, madaniyat uning ma’naviy-ijodiy salohiyatini, sport jismoniy va irodaviy imkoniyatlarini, yoshlar siyosati esa ushbu salohiyatni jamiyat taraqqiyotiga yo‘natirish mexanizmlarini shakllantiradi.

Shu ma’noda, mustaqillikning 35 yilligi o‘tgan davrni sarhisob qilish bilan birga erishilgan natijalarni yangi taraqqiyot mezonlari asosida baholash uchun ham muhim fursatdir. Bugungi vazifa erishilgan natijalarni yangi sifat darajasiga ko‘tarishdan iborat. Ta’limda qamrovdan — sifat va raqobatbardoshlikka, ilm-fanda ilmiy salohiyatdan — texnologik va iqtisodiy samaradorlikka, madaniyatda merosni asrashdan — ijodiy industriyalarni rivojlantirishga, sportda ommaviylikdan — barqaror yuqori natijalarga, yoshlar siyosatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan — yoshlarni taraqqiyotning faol subyektiga aylantirishga o‘tish kelgusi bosqichning asosiy mazmunini belgilaydi.

Demak, Vatanimiz mustaqilligining 35 yillik tarixi milliy taraqqiyot salohiyatining bosqichma-bosqich shakllanishi va yangi sifat kasb etish jarayonidir. 1991-yil milliy davlatchilik va mustaqil taraqqiyot uchun tarixiy imkoniyat eshigini ochgan bo‘lsa, oxirgi o‘n yil ushbu imkoniyatlarni keng ko‘lamli islohotlar, inson kapitaliga investitsiyalar va yangi institutsional mexanizmlar orqali rivojlantirishning muhim bosqichiga aylandi. Endi esa asosiy mezon inson farovonligi, mamlakatimizning ilmiy-texnologik salohiyati, jamiyatning ijodiy va intellektual imkoniyatlari hamda yurtimizning global raqobatbardoshligiga qanchalik barqaror ta’sir ko‘rsatayotganidir.



# IMKONIYATLAR EVOLYUTSIYASI

## yoxud islohotlar ayollar hayotini qanday o'zgartirdi?



**Malika QODIRXONOVA,**  
**Oliy Majlis Senati a'zosi**

### Ta'lim sohasidagi yutuq: moliyaviy to'siqlarni bartaraf etish

Sifatli oliy ta'lim olish imkoniyati qizlar uchun asosiy "ijtimoiy lift"ga aylandi. Bu borada davlatimiz ta'limni uzoq muddatli subsidiyalashning misli ko'rilgan mexanizmlarini joriy etdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan joriy etilgan foizsiz ta'lim kreditlari haqiqiy imkoniyatlar eshigi bo'ldi.

Unga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari, texnikumlar va kollejlarning (davlatga tegishli, xususiy va xorijiy filiallarni qamrab olgan holda) mutlaq barcha talaba qizlarga nol foiz stavkada uzoq muddatli kreditlar olish huquqi berildi. Bunda tijorat banklarining foiz stavkasini Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat jam'armasi qoplaydi. Kreditning o'zini esa bitiruvchi faqat o'qishni rasman tugatgandan keyin yarim yil o'tgach qaytara boshlaydi.

Aslida, bu minglab qizlarimizni yangi turmush darajasiga olib chiqqan misli ko'rilgan imkoniyat bo'ldi. Chunki ilgari oliy o'quv yurtida kontrakt pulini to'lash, ayniqsa, bir necha farzandini o'qitayotgan oilalar budgetiga og'ir yuk bo'lib tushardi. Oddiy tijorat krediti yuqori foizlar tufayli asoratga aylanardi. Nol stavka qizga ta'lim olish, uning oilasiga esa qarzlardan saqlanish imkonini beradi. Qolaversa, ushbu mexanizm iqtisodiy mustaqillikni tarbiyalaydi. Qiz kreditini o'zi rasmiylashtiradi, uni qaytarishni esa (faqat qarzniing asosiy qismi, foizsiz) o'qishni tugatgandan keyin 6 oy o'tgach boshlaydi. Bu vaqtda u ish topishga ulguradi. Mentalitetda muhim aqliy o'zgarish yuz beradi: qiz ota-onasi

Davlat asrlar davomida mamlakat aholisining yarmini cheklab kelgan to'siqlarni izchil va tizimli ravishda yo'q qilmoqda. Foizsiz kreditlar va kvotalar qizlar uchun ilm-fan va yuqori texnologiyalar olamiga yo'l ochdi. Biznesni institutsional qo'llab-quvvatlash kasanachi ayollarni ishonchli ish beruvchilarga aylantirdi.

## YANGI O'ZBEKISTON



### Gender tenglik

avtomatlashtirishga yordam beradi. Mazkur mexanizm yangi tadbirkor ayollarni odatiy xatolardan himoya qiladi.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda tegishli qarori ham islohotlar yo'lidagi navbatdagi qadam bo'ldi. Unga ko'ra, o'zini o'zi band qilishni rivojlantirish va "Daromadli ayol" dasturi kasanachilik, hunarmandchilik, to'qimachilik va tomorqa xo'jaligida band bo'lgan yuz minglab ayolning daromadini qonuniylashtirish va rag'batlantirish imkonini berdi. Davlat o'zini o'zi band qilgan ayollar uchun uskunalar sotib olishga subsidiyalarni ajratib, soliq imtiyozlarini taqdim etmoqda. Bu juda muhim. Chunki subsidiya va imtiyozlar ayollarni o'z mikrofirmasini rasman ro'yxatdan o'tkazishga undaydi. Bu ularga huquqiy himoya, davlat buyurtmalari va qonuniy mehnat stajiga ega bo'lish huquqini beradi.

Ayollar iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash borasidagi bu kabi islohotlar davlatga ham foyda keltiradi. Xususan, xotin-qizlar biznesi yuqori ijtimoiy mas'uliyatga ega. Ayol kishi tikuvchilik sexi, qandolat do'koni, xususiy bog'cha yoki AT studiyasi ochar ekan, birinchi navbatda, o'z mahallasidagi boshqa ayollarni ishga oladi.

Qolaversa, bu jihat iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yo'l ochadi: tadbirkor ayollar ko'pincha xizmat ko'rsatish, ijtimoiy tadbirkorlik, maktabgacha ta'lim, tibbiyot va hunarmandchilik sohalarida bo'sh ish o'rinlarini to'ldirmoqda. Bu ichki bozorni yanada moslashuvchan va inqirozlarga chidamli qiladi.

Shuningdek, soliq tushumlari oshadi: o'zini o'zi band qilgan kasanachilarning barqaror kichik biznes subyektlariga aylanishi uzoq muddatli istiqbolda mamlakatning soliqqa tortiladigan bazasini kengaytiradi.

### Huquqiy maqom, xavfsizlik va siyosiy salmoq

Mehnat huquqlarini tenglashtirish va ayollarning erkinligi hamda sog'lig'iga tajovuz qilganlik uchun qat'iy qonunchilik sanksiyalarini joriy etish keyingi o'n yillikning eng muhim qadami bo'ldi. Xususan, O'zbekiston Markaziy Osiyoda o'ladagi (maishiy) zo'ravonlikni to'liq jinoiy javobgarlikka tortgan birinchi davlat bo'ldi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi qonuni bilan qonunchilikka ilk bor stalking (qasd bilan ta'qib qilish), ish joyida yoki jamoat joylarida

jinsiy shilqimlik qilish kabi tushunchalar va jinoiy javobgarlik kiritildi.

Siyosiy institutlarda gender tenglikka alohida ahamiyat berildi. Saylov kodeksiga ko'ra, saylov tizimini modernizatsiya qilish doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga saylovlarda siyosiy partiyalardan ayol nomzodlarni majburiy ko'rsatishning qonunchilik chegarasi 30 foizdan 40 foizga oshirildi. Bu davlat hokimiyati organlarida xotin-qizlar vakilligini keskin oshirish imkonini berdi.

Ayollarning kasbiy faoliyatida o'z intilishi va qobiliyatini to'la-to'kis ro'ybog'a chiqarishi uchun barcha imkoniyatni safarbar etish — islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi. 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun bu islohotning huquqiy negizini shakllantirdi. Shu maqsadda kasblar egallashdagi to'siqlar to'liq bartaraf etildi va ilgari 44 ta mutaxassislikni qamrab olgan "Ayollar uchun taqiqlangan kasblar" deb ataladigan ro'yxatlar bekor qilindi. Endi ayollar iqtisodiyotning har qanday sohasida ishlash huquqiga ega.

O'zbekistonning huquqiy manzarasi so'nggi 10 yilda tubdan o'zgardi. Bugun davlat kafolatlari o'z hayotining barcha bosqichini qamrab olgan: bepul oliy ta'lim olishdan tortib biznesni himoya qilish va shaxsiy xavfsizlikkacha. Bu vaqtda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar respublika xotin-qizlarining iqtisodiy jihatdan mustaqil va ijtimoiy himoyalangan bo'lishiga imkon beruvchi mustahkam poydevor yaratdi.

Umuman, ushbu islohotlar mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash faqat ijtimoiy xariya masalasi emasligini yaqqol isbotladi. Bugun bu jarayon respublika taraqqiyotining strategik drayveridir.

Davlat asrlar davomida mamlakat aholisining yarmini cheklab kelgan to'siqlarni izchil va tizimli ravishda yo'q qilmoqda. Foizsiz kreditlar va kvotalar qizlar uchun ilm-fan va yuqori texnologiyalar olamiga yo'l ochdi. Biznesni institutsional qo'llab-quvvatlash kasanachi ayollarni ishonchli ish beruvchilarga aylantirdi. Shu tariqa O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy landshafti to'liq o'zgardi: zamonaviy o'zbek ayoli endi passiv kuzatuvchi emas, balki o'z kelajagini mustahkam qonunchilik poydevori ustida ishonch bilan barpo etayotgan yangi O'zbekistonning faol me'morlaridir.



**Faxr**

**Qilayotgan ishi uchun e'tirof eshitish kishiga o'zgacha hissiyot berarkan. Mustaqilligimizning 35 yillik tantanasi oldidan davlat mukofoti bilan taqdirlanganimni eshitganimda shular haqida o'yladim. Kutilmagan yangilik ham quvonch, ham faxr, ham mas'uliyat hissini bag'ishlayapti. Bunday vaqtda inson nafaqat o'zi, balki boshqalarning ham farovonligi uchun yanada ko'p harakat qilishga kuch toparkan.**

To'g'risini aytсам, xususiy biznesdagi o'n besh yillik faoliyatim davomida eng birinchi maqsadim moddiy manfaatdorlik bo'lgan. Doim ko'proq daromad topish, shaxsiy farovonligimni oshirishga intilganman va barcha harakatim shunga qaratilgan. Ammo faoliyatim bevosita xalq xizmatiga bog'lanib, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda tashkil etilgan "Agro Star" korxonalaridan biriga rahbarlik qila boshlaganimdan keyin bu hayotda moddiy manfaatdan ko'ra yuksakroq tushunchalar borligini angladim. O'z mehnatning bilan biror soha rivojiga hissa qo'shish, yangi va zamonaviy loyihalarni amalga oshirish, odamlar bilan ishlash, ularning rivojlanishiga ko'maklashish, kichik xizmatlarning uchun e'tirof etilish — bularning barchasi hech qanday moddiyatga almashib bo'lmaydigan, pul bilan o'lchanmaydigan haqiqiy yutuq ekan.

Bugun yurtimizning har bir hududida "Agro Star" korxonalari faoliyat yuritaypti. Har biri qishloq xo'jaligining muayyan yo'nalishiga ixtisoslashgan va aholi xonadonlari bilan ishlaydi. Qolaversa, bu tizimda mahsulot yetishtirishdan tortib, eksport qilishgacha bo'lgan barcha jarayon eng zamonaviy texnika hamda texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Biz tomorqa yer egalari, dehqonlar va fermerlar bilan kooperatsiya asosidagi hamkorlikda ishlaymiz. Aholi tomorqasida mahsulotlar tizimli yetishtirilib, yagona brend ostida eksport qilinadi.

Bu tajriba amaliyotda nafaqat mamlakatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro standartlar



talablariga mos holda yetishtirish, balki aholining o'z tomorqasidan samarali foydalanishi hamda bir necha barobar ko'proq daromad topishiga xizmat qilaypti. Bugun yurtimizda 22 million tonnadon ko'p meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilayotgan bo'lsa, shuning 70 foizi aholi tomorqasi va qishloq xo'jaliklari yerlariga to'g'ri keladi. Lekin bu imkoniyatdan deyarli foydalanilmagan. "Agro Star" korxonalarining

asosiy vazifasi bu ko'rsatkichni sifat jihatidan ham oshirishga qaratilgan. Eksport talablariga mos mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlash, jahon bozorida milliy brendimizni omallashtirish, yangi bozorlarga kirib borish ana shu vazifalarning bir qismi.

Biz, vodiklilar shirasi tilni yoradigan, dunyoga mashhur mevalarimiz bilan hamisha faxrlanamiz. Bunday mahsulotlarga talab doim bo'lgan, lekin faqat sarxil mevalarning o'zi sotilgan. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi eng katta islohotlardan biri mahsulotlarni qayta ishlash tizimi rivojlangani bo'ldi. Korxonalar zamonaviy texnologiya-larni olib kirib, istalgan turdagi mevani qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantiraypti. Bu

xomashyoni sotishdan ko'ra bir necha barobar ko'proq daromad keltiradi.

"Quva Agro Star" MCHJ korxonasidagi ishlar anor, gilos, shaftoli kabi mevalarni yetishtirib, yangi bog'lar tashkil etishdan boshlangan. Bugunga kelib yiliga o'ndan ortiq turdagi 5000 tonna mahsulot yetishtirib, ularni saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va eksportgacha bo'lgan jarayon yagona zanjirda birlashtirilgan. Har bir bosqich Italiya, Ispaniya, Germaniya va Xitoydan keltirilgan eng zamonaviy texnologiyalar asosida bajariladi. Katta-katta yer maydonlaridagi intensiv bog'lar tomchilatib sug'orish tizimiga asoslangan. Yig'ib olingan mevalar korxonaning zamonaviy ishlab chiqarish liniyalarida qayta ishlanib, tayyor mahsulotlar o'nlab davlatga eksport qilinadi. Nafaqat ko'rinishi, balki ta'mi ham o'zgacha bo'lgan mahsulotlarimiz jahon bozorida ancha xaridorgir.



# MODDIYAT BILAN O'LCHANMAYDIGAN YUTUQLAR



**Shavkatjon ALIQULOV,**  
**"Quva Agro Star" MCHJ**  
**direktori,**  
**"Shuhrat" medali sohibi**

natijalar, yo'lga qo'yilgan tajribani yuqori baholadi. Bundan faxrlandik.

Bugun esa ikki karra g'urur his qilaypman. Kichik xizmatlarim yuqori baholanib, "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganim men uchun kutilmagan yangilik bo'ldi. Faoliyatim ortidan davlatimiz rahbari bilan ko'rishish, mukofotlanish, e'tirof etilish baxti nasib qilganiga shukr aytaman. Bu nafaqat men, balki ota-onam va farzandlarim uchun ham katta faxr.

Yuksak mukofot, avvalo, quvonch, qolaversa, katta mas'uliyat hamdir. Odam bunday e'tibordan beqiyos kuch olar ekan. Men ham oldimga yangi maqsad va vazifalar qo'ydim. Ularga jamoam bilan birgalikda erishishga tayyormiz. Kelgusida agrokorxonamiz kooperatsiya usulidagi loyihalarni ko'paytirish, aholi tomorqasida sifatli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali ham ishlab chiqarish quvvatini oshirish, ham odamlarni daromadli qilishda davom etadi.



O‘zbekiston atalmish jannatmonand, betimsol diyorimizning har bir go‘shasi, har bir hududining o‘z nomi, suratiyu go‘zal siyrati bor. Joy nomlarini tilga olishingiz bilan qalbingiz oynasida o‘sha maskan butun chiroyi, bo‘y-basti bilan yuz ochadi. Ayni paytda xotiralar zilol buloqdek qaynab chiqadi: dilingizdan muqim o‘rin olgan yaxshi odamlar, ularning samimiyati mehringizni tovlantirib yuboradi. Shu bir parcha zamin timsolida siz o‘z xalqingiz, o‘z Vataningizni yanada ko‘p yaxshi ko‘rib ketasiz. Ulug‘larimiz bejiz “Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga”, demaydi. Bu aslida, odamzod bilan umrbod yashaydigan e’tirofdir.



Mahmud TOIR, O‘zbekiston xalq shoiri

Toshkent viloyatining bir farzandi, ijodkori, mana bugun oqsoqollar safidagi bir vakili sifatida shukr qilamanki, viloyatimizning qariyb har bir qarichi, qishlog‘u qo‘rg‘onlarida, ovullarida bo‘ldim. Kimlar borki, dunyoni aylanib keladi, lekin o‘zi tug‘ilib o‘sgan hudud — tumani yoki viloyati u yozda tursin, qo‘shni qishloqqa bormagan, yonidagi bog‘u rog‘lar, tog‘u toshlardan bexabar. Kamina ana shunday kimsalar qatorida emasligimdan faxr etaman. O‘zbekistonimizning salmoqli hududlaridan biri bo‘lgan jonajon Toshkent vohasidagi 22 tuman va shaharni baholi qudrat kezzdim, aylandim, bugun ular haqida yaxshi bilaman, deyishga haqqim bor. Ochiq‘i, ona Vatanimiz, buyuk xalqimiz hurriyatining qutlug‘ 35 yilligi keng nishonlanayotgan shu ulug‘ kunlarda Bekobod va bekobodliklar haqida ikki og‘iz so‘z aytgim keldi. Qolaversa, bu yil viloyatimizning qariyb barcha tumani qatori Bekobod tumani tashkil topganiga ham 100 yil to‘libdi. Mard va tanti bekobodliklar uchun bu — qo‘shaloq bayram.

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida faoliyat yuritayotganimga 40 yilga yaqin vaqt bo‘ldi. O‘tgan yillarda ko‘plab shogirdlar yetishtirdim. Ular hozir mamlakatimizning turli hududlarida, qolaversa, xorijda raqs yo‘nalishida yosh avlodga ta‘lim berib kelyapti.

Hayotini san‘atning shu turi bilan chambarchas bog‘lagan, davlat ansambllari, teatr, ta‘lim muassasalarida mehnat qilayotgan mutaxassislarining ko‘pi O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida o‘qigan. Bugun ularning ba‘zilari men bilan yelkama-yelka shu yerda pedagogik faoliyatini yuritaypti. Kechagi o‘quvchilarim — bugungi hamkasblarim. Bundan g‘ururlanam.

Kuni kecha davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga binoan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Ushbu mukofot nafaqat menga, balki xoreografiya akademiyasiga, ustozlarimizga yuksak ishonch namunasidir. Qolaversa, jonkuyar jamoamizning ko‘p yillik mehnati, talabalarimizning nufuzli xalqaro tanlovlarda erishayotgan yutuqlari,



Bayramga esa yaxshi tilaklar, nurli so‘zlar, duolar yarashadi. Zotan, ijodkorning shirin so‘zi, qalbidan chiqqan pokiza tilaklari to‘yga to‘yonadir. O‘zimga kelsak, salkam oltmish yildan buyon, ya‘ni maktabning yuqori sinfida o‘qib yurgan kezarimdan beri bekobodliklarning metin irodasi, zahmatkashligi, halol mehnati oldida lol qolib kelaman. Odilona e’tirof etsam, buni men talay yillar o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, kuzatdim, ichida bo‘ldim.

Keling, fikrimni ochiqroq, soddaroq qilib tushuntiray. Maktabni bitirar chog‘imizda oylab Bekobod paxtazorlarida “javlon” urganmiz. Endi o‘zingiz o‘ylang, Parkent qayogda-yu Bekobod qayoqda! Orasi yuz o‘ttiz kilometrdan ko‘p bo‘lsa, ajabmas. Bu o‘z yo‘liga. Ammo birgina Bekobod shamoli nima ekanini o‘sha yillari ilk bor ko‘rib, uning shiddati va shafqatsizligi oqibatida ro‘y bergan holatlarni kuzatib, mahalliy aholining ahvoliga qancha achingan bo‘lsam, jasorati-yu metin irodasi, o‘zini tez tiklab, hayotga muhabbatini aslo so‘ndirmasligiga qoyil qolganman. Paxtazorda ham bir qo‘l bilan boshkiyimni ushlab, ikkinchisida paxta teradigan kunlar bo‘lardi. Aslida, bunday noqulay sharoitda ekin ekish va undan hosil kutishning o‘zi mashaqqat edi...

Oliy o‘quv yurtida kechki bo‘limda o‘qib, kunduzi nashriyotda ishladim. Keyin respublika radioida faoliyat yuritdim. Tabiiyki, o‘sha yillari terim mavsumi boshlanishi bilan deyarli hammaning hayoti, behayo umri paxtazorda kechardi, paxtazorga ko‘chardi. Aytmoqchimaniki, o‘smirlikim va yoshlik yillarimda Bekobodga ko‘p bordim, yashadim. Har safar paxta terish uchun bordim!

O‘sha yillari O‘zbekiston xalq shoirilari Omon Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, yana o‘nlab ijodkorlar bilan Bekobodga borib, beadoq egatlarda ko‘p egilganmiz. “Parkent tongi” gazetasiga bosh muharrir bo‘lgan kezarim yana terim mavsumida yo‘lim Bekobodga tushdi. So‘ng Ogqo‘rg‘on, Quyi Chirchiq tumanlarda ham “oq oltin”ni daftar, ko‘sak tig‘ini qalam qilib, “ijod” qilganmiz. Shu kezlari kamnaga Bekobod tom ma‘noda mashaqqatlar maskani, azoblar manzili sifatida ko‘rinardi. Bekobod desa, yuragim bezillar, qalbindim bir cheti uvishar, kayfiyatim tushib ketardi.

O‘shanda bekobodlik bo‘lib yashash uchun chinakam mardlik kerakligini anglaganman. O‘sha davriming dolg‘ali va noinsoniy “paxta siyosati” qullikning ayni shakli ekanini, aslida “ulug‘ og‘a”larning boshqa mamlakatlarga qanday past nazar bilan qarashini ich-ichimizdan his qilsak-da, oyoqlar ostida ezilgan g‘o‘za ko‘sagi singari yuragimizni — butun hayotimizni ularning nopok oyoqlari tagiga to‘shashga go‘yo mahkum etilgandik. Nomi “Bekobod” bo‘lsa ham xalqi na

Bugun Bekobod tumani markaziga kirib borgan inson o‘z ko‘zlariga ishonmaydi. “Nahotki!” deb yuboradi beixtiyor! Ko‘ksi g‘ururdan, iftixordan ham quyonchga, ham nurga to‘ladi. “Bo‘larkan-ku!” degan xitob Bekobod shamoli yetagida butun olamga taraladi.

BENAZIR

BUNYODKORLIKLAR

BEKOBODI

bek, na obod edi. Aksincha “bek”larning manfur ko‘nglini “obod” etishga mustahiq bo‘lgan bebaxt zaminning o‘zginasini edi! Bu dardu alam, so‘ngsiz iztiroblar bir mening emas, butun bir mamlakat, butun millatning hasratlari, ichini kuydirgan ohu fig‘onlari edi aslida...

Oradan ko‘p yillar o‘tdi, qancha loyqa suvlar oqib ketdi. Bugun buloqlar tiniq, chashmalar sof, ko‘ngillarda hurlik safosi, istiqlol shabodasi. Endi Bekobodga borsam, go‘zallikka, buyuk bunyodkorliklarga, eng asosiysi, hayotidan rozi odamlar chehrasiga ro‘baro‘ kelaman. O‘zim ham qushdek yengil uchib boraman. U yerdagi hayotga tashna, vatanparvar yurtodshalarimizdan quvvat, kuch olib, yanada yengillashib qaytaman.

Bularning bari — istiqlolning, mustaqillikning sharafti, shahodati!

Shukr, yaxshi kunlar keldi. Bu achchiq haqiqatning yuzini to‘sis turgan, oq deb yozib qo‘yilgan, asli ko‘mirdek qop-qora azob pardasi yulib tashlandi. Afsuski, biz o‘shandan keyin ham chorak asr davomida ko‘zimizni ochmadik — derazadan shovullab kirayotgan hurlik yog‘dusidan to‘la bahramand bo‘lmadik — 25 yil yana paxta tashvishi, oq paxtaning qora iskanjidan qutulolmadik.

Shukrki, Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz rahbari bo‘lgach, ilk islohotlardan biri aynan paxta yakkahokimligidan elni ozod qilish bo‘ldi. Keyingi o‘n yil biz uchun ertaknamo o‘tdi, o‘tmoqda!

Aslida, bu ertak emas, biz kurgan kunlar, biz loyiq bo‘lgan damlar edi. Ustoz Abdulla Oripov ta‘biri bilan aytganda, yelkamizga o‘tobning tekkan rost bo‘ldi. Bugun O‘zbekiston xalqi boshida, musaffo osmonida ana shu o‘fot bor yuz o‘ttiz elatu millat boshiga teng nur sochmoqda. Tabiiyki, bu ziyo bekobodliklar qalbini ham, chehrasini ham e‘zozga, ehtiromga o‘ramoqda. Albatta, bu mo‘jaz bitigimda Bekobod tumanidagi ulug‘ bunyodkorliklarning butun haybatu salobatini ko‘rsatolmayman, ta‘rifu tavsif etolmayman. Illo, bunga qancha tili toshni yorar ijodkorlar, qancha ulug‘ adiblar jam etilmog‘i joiz. Ammo shu yil 13-iyul kuni Prezidentimiz bilan Bekobod shahriga zamonaviy poyezdda, bitta vagonda borganimiz, Bekobod tumani va shahri aholisi uchun istiqbolida yaratilajak eng maqsadlardan boxabar bo‘lganimizni iftixor bilan aytaman.

Bugun Bekobod tumani markaziga kirib borgan inson o‘z ko‘zlariga ishonmaydi. “Nahotki!” deb yuboradi beixtiyor! Ko‘ksi g‘ururdan, iftixordan ham quyonchga, ham nurga to‘ladi. “Bo‘larkan-ku!” degan xitob Bekobod shamoli yetagida butun olamga taraladi.

Bu ulug‘vorliklar o‘z-o‘zidan bo‘lmayapti. Avvalo, Yaratganning bekobodliklarga mehur nazari, qolaversa, xalqning uyushqoqligi, birdamligi samarasidir. Biroq ayon haqiqat borki, uni aytmasak, na insodan, na adolatdan bo‘ladi. Bu ishlar Prezidentimizning qator-

qator qarorlari, ham iqtisodiy, ham ma‘naviy, ham madaniy qo‘llab-quvvatlashi, tegishli ko‘rsatmalari bilan amalga oshirilayotgani bor qat. Bularning barchasi — davlatimiz rahbarining Bekobod tumanining 100 yilligiga to‘yonasi, sovg‘asi desak, yana ham haq so‘zni aytgan bo‘lamiz. Zero, butun diyorimiz aholisi qatori bekobodliklar ham bugun inson qadriga e‘tiborning tom ma‘nodagi jirosini o‘z jismu jonida his qilyapti. Shu bois, tillarda shukrona, tashakkur gullayapti.

Bot-bot yodimizga tushib, tafakkurni tiniqlashtiradigan ibora — “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan xalq naqli qanchalar topib aytilgan-a! Qolaversa, millatparvar, xalqparvar dono rahbarning hayot maktabidan, ish uslubidan bahramand bo‘lgan, ustoz ko‘rgan shogirdlar ham xayrli ishlarni munosib davom ettiradi. Bugun respublikamizning qaysi viloyati, shahri va tumanida xalqimiz baxtli, saodatli, turmushi farovon bo‘lsa, bilingiki, o‘sha joyda el-ulusning davlatdan rizoligini o‘ylab ish yuritayotgan, demakki, Prezidentimizning chinakam shogirdlari xizmat qilyapti! Demakki, shu hududlardagi rahbarlar, hokimlar o‘z o‘mini topgan! Ularning xalqqa, Vatanga muhabbati cheksiz, sadoqati sobit.

Bu borada keyingi yillarda Toshkent viloyatida viloyat hokimi jonbozligidagi bunyodkorliklar fikrimizning yorqin dalilidir. Ayni paytda Bekobod tumani hokimining jonkuyarlik bilan qilayotgan

1-sentabrdan boshlab barcha xodimlarning ish haqi 2 karra oshiriladigan bo‘ldi. Bu juda katta moddiy yordam. Raqs ustalari uchun pensiyaga chiqishda talab etiladigan raqs staji 20 yildan 15 yilga qisqartirildi. 15 yil raqs yo‘nalishida ishlab, besh yil o‘qituvchi, baletmeyster sifatida faoliyat yuritish soha vakillari uchun yengillik yaratishi barobarida yoshlarning professional mutaxassislardan saboq olishi, raqs san‘atiga oshno bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Yana bir muhim yangilik — Yangi Toshkentda qurilishi boshlangan Maqom markazi yonida zamonaviy Raqs saroyini barpo etish taklifi ilgari surilgani bo‘ldi.



xayrli ishlari bekobodliklarning hayotga munosabatini o‘zgartiryapti! Xalqning ichiga kirgan, hamisha el bilan bamaslahat ish yuritgan rahbar o‘zini hukmdor emas, balki Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, o‘z xalqining xizmatkori deb biladi. Aslida, muvaffaqiyatlarning oltin kaliti ham shundaidir!

Keyingi bir yarim yilda bekobodliklar necha-necha davrlardan beri orzu qilib kelayotgan bunyodkorliklar amalga oshdi. Nafaqat tuman markazi — chekka-chekka qishloqlarda ham oddiy mehnatkashlar uchun yaratilgan qulayliklar, tiklangan inshootlar, ko‘priklar, ma‘naviy-ma‘rifiy shohadagi o‘zgarishlar kishini hayratga soladi. Barchasi xalq rizoligini o‘ylab, hududlar ko‘rk-u jozibasi, sarishtilgini yu ozodaligi, bir gap bilan aytganda, inson qadri uchun qilinayotgan ezu ishlaridir.

Shu r‘inda yuragimning tub-tubida kechayotgan mafunlik va xayrixohlik hislarini muxtasar qilib, fikrimga xulosa yasasam. Bugun mamlakatimizning barcha aholisi kabi qadrdon bekobodliklar ham Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini o‘zgacha shukuh, o‘zgacha baxtiyorlik va shukrona bilan kutib olyapti. Binobarin, Bekobod juda katta, g‘oyat ulug‘vor, nihoyatda olamshumul ishlar bo‘lag‘asida turibdi. Shu qutlug‘ kunlar ularga muborak bo‘lsin. Yaratgandan so‘rab niyat qilingan barcha xayrli sa‘y-harakatlariga O‘zi rivoj ato etsin. Hurriyatimizga, bugungi obodligu tinchligimizga ko‘z tegmasin! Yangi O‘zbekistonimiz abadiy bo‘lsin!

Tinch yurtga bayramlar yarashadi. Yurtimizda bayram ko‘p. Ularning hech biri musiqa va raqqis o‘tmaydi. Chunki raqs barcha san‘atlar orasida go‘zal, nihoyatda nozik, o‘ta jozibador san‘at. Unda ko‘nglning rang-barang manzaralari, hissiyotlari, tug‘yonlari, orzu-armonlari aks etadi. Insonga xos barcha xususiyatni raqs san‘ati o‘z izmiga sola oladi, uning ta‘sirchan “tili” yordamida hamma tuyg‘ular, ruhiy iztiroblar jonlanadi.

San‘at soxtalikni yoqtirmaydi, uning ravnaqi uchun fidoyilar zarur. Biz hamisha izlanishdamiz. Zero, zimmamizda ulkan mas‘uliyat bor. Akademiyamizda ham ustoz-shogird an‘anasi nihoyatda qadrlanadi. Mustaqilligimizning o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan muktofotga munosib ko‘rilishim hatto xayolimda ham yo‘q edi. Bu men uchun kutilamagan quvonchli voqea bo‘ldi. Chunki hech qachon unvon, e’tirof uchun ishlamaganman. Kuch-g‘ayratimni o‘zim sevgan kasb, yosh avlod kamoli yo‘lida sarflash eng oliy maqsadim bo‘lgan. Shogirdlarim katta unvon va e’tiroflarga munosib ko‘rilganda boshim ko‘kka yetardi.

Joriy yil o‘zim ham shu shukuhli onlarni his qilib turibman. Telefon qo‘ng‘iroqlari, qutlovlar bir oz shoshirib qo‘ygani ham rost. Bundan juda xursandman. Mehnatimizni qadrlagan davlatimizga rahmat. Ustozlarimning duosi, shogirdlarimning mehnati, oilamning qo‘llari meni bugun elda aziz etmoqda. Ulardan cheksiz minnatdorman.

# Bekobod shamoli

Har yurtning o‘z sharafi, bor turfa tabiati, Tabiat og‘ushida bordir qancha hikmati. Bek xalqlarning bekligi xush erur har niyati, Dilim tilimni nogoh so‘z aytmoqqa undaydi, Bekobod shamoliga ko‘ksi tog‘lar chidaydi.

Mo‘g‘ultog‘ tizmasining etagi, yaylovida, Bekobod yuz ochgandir Sirdaryo siylovida, Temur Malik ot surgan shon tutib jilovida, Boburdek qalbingizga g‘ayrat tug‘in qadaydi, Bekobod shamoliga ko‘ksi tog‘lar chidaydi.

Arboblari sanasam, barmog‘im kamlik qilar, Olim-u fozillari lutfi karamlik qilar, Adolat maydonida halol hakamlik qilar, Bekobodni ko‘rmagan endi ko‘rsa yayraydi, Bekobod shamoliga ko‘ksi tog‘lar chidaydi.

Yurtboshining mehridir istiqbolning ustuni, Har bitta bekobodlik ko‘p kutdi ushbu kunni, Yechilmoqda ming-minglab mushkullarning tuguni, Obod makonga odam havas bilan qaraydi, Bekobod shamoliga ko‘ksi tog‘lar chidaydi.

Bekobodni bilgaydir Amriqo-yu Chinlari, Bunyodkor xalqin alqab, kelgaydir tahsinlari, El baxti — baxtim degan Bekobod lochinlari, To zafar quchmaguncha mard belbog‘in yechmaydi, Bekobod shamoliga ko‘ksi tog‘lar chidaydi.

Bekobod timsolidir dorilamon zamonning, Havasini keltirgay bugun jumla jahonning, Temir irodasidir yangi O‘zbekistonning — Bekobod bedor ekan, yurt chirog‘i o‘chmaydi, Bekobod shamoliga ko‘ksi tog‘lar chidaydi.

# RAQS ORQALI qalblarga milliy ruh, ona vatanga muhabbatni singdirishga intildim

Yoshlarga raqsn shunchaki o‘rgatmadim. Bu san‘at orqali qalblarga milliy ruh, go‘zallik va ona vatanga muhabbatni singdirishga intildim. Shu orqali yurtimizda kechayotgan o‘zgarishlar, yangilanishlarga hissam qo‘shilayotganidan behad mamnunman.

So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan san‘at, madaniyatga berilayotgan e’tibor shu sohaning vakili sifatida meni juda quvontiradi. Ayniqsa, chet el safarlari, xalqaro tanlov, anjuman, festivallarga borgan chog‘imda O‘zbekiston madaniyati va san‘ati haqida cheksiz faxr bilan gapirib beraman. Xorijlik hamkasblarim ham Vatanimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni diqqat bilan kuzatib bormoqda. Yurtidan uzoqda bo‘lganingizda ona yurtigingizda ro‘y berayotgan yangilanishlar e’tirofi chindan qalbingizni yuksaltirar ekan.

Mamlakatimizda teatr, kino, opera va balet, raqs san‘ati, qo‘yngiki, barcha yo‘nalish e’tiborda. San‘at va madaniyatni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz ishtirokida shu yil 1-iyun kuni madaniyat va

san‘at sohasi vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuv raqs san‘ati rivojida keskin burilish nuqtasini boshlab berdi. Ta’kidlanganidek, ashula va raqs ansambllarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida



Shuhrat TOXTASIMOV, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

akademiyada yaratilayotgan yangi avlod darsliklari, ilmiy tadqiqotlar, monografiyalarga berilgan baho, raqs san‘atiga e’tibor nishonasi deb bilamiz.

Bu bizga yanada kuch-g‘ayrat va ilhom bag‘ishlaydi. Zero, yoshlarga madaniyat, san‘at sirlarini o‘rgatish biz uchun nafaqat kasb, balki navqiron avlod vakillari qalbiga go‘zallik, ijod va ezigulik urug‘ini ekish imkoniyati hamdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846. 29305 nusxada bosildi. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy